



O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO MAKROIQTISODIY TAMOYILLARINI QO'LLASH

Negmatova Nilufar Ergash kizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Makroiqtisodiyot magistratura
mutaxassisligi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19651291>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 14-aprel 2026 yil

Ma'qullandi: 16-aprel 2026 yil

Nashr qilindi: 18-aprel 2026 yil

KEY WORDS

Sug'urta, YAIM, makroiqtisodiy barqarorlik, sug'urta mukofoti, iqtisodiy o'sish.

ABSTRACT


Mazkur maqolada O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlantirishda xalqaro makroiqtisodiy tamoyillarning o'rni va ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Ishda sug'urta bozorining milliy iqtisodiyotdagi roli, uning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri hamda rivojlanish tendensiyalari ilmiy yondashuv asosida o'rganilgan. Xalqaro tajribalar asosida sug'urta faoliyatini tartibga solish, risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va investitsion resurslarni shakllantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Natijalar sug'urta bozorini rivojlantirishda xalqaro makroiqtisodiy tamoyillardan foydalanish milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, moliyaviy tizimning ishonchliligini oshirish va iqtisodiy xatarlarni kamaytirishda muhim omil ekanini tasdiqlaydi. Maqolada sug'urta bozorining rivojlanish darajasi bilan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik statistik usullar orqali asoslab berilgan. Olingan natijalar asosida sug'urta bozorini yanada rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda bosqichma – bosqich bozor munosabatlari shakllanishi va rivojlanishi, iqtisodiyot subyektlarining yuksak darajadagi iqtisodiy mustaqilligi, erkinligi darajasi ortib borayotgan jarayonda doimo risklar mavjud bo'lishi kuzatiladi. Ular manfaatlariga zarar keltirishi mumkin bo'lgan va doimiy takrorlanib turadigan risklarni qayta taqsimlash, ya'ni o'ziga xos bo'lgan maxsus xizmat bilan sug'urta shug'ullanadi. Sug'urta xizmati bahosining yuqori chegarasi talab hajmi va bank foizining miqdori bilan aniqlanadi. Sug'urta xizmatining ma'lum bir turiga yetarli darajada talab mavjud bo'lganda, sug'urta tashkiloti mazkur xizmat bahosini yuqori darajada saqlab turishi mumkin. Lekin, vaqt o'tishi bilan bozorda sug'urta xizmati ko'rsatishurlarining ko'payishi bilan, o'z-o'zidan tarif stavkalari kamayadi.¹

II. Xalqaro makroiqtisodiy tamoyillarning sug'urta bozoriga ta'sir. MilliyMilliy sug'urta bozori biron-bir mamlakat hududidagi sug'urta muassasalarini va ularni faoliyatini o'z tarkibiga oladi. Jahondagi eng yirik milliy sug'urta bozori Amerika Qo'shma shtatlaridir.

¹ "Экономика и социум" №10(113)-1 2023[Elektron resurs] URL: www.iupr.ru Murojaat qilingan sana: 2025-yil

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda yig'iladigan sug'urta tushumlarining 43 foizdan ortig'i AQSh hissasiga to'g'ri keladi. Bu yerda hayotni sug'urta qiluvchi 2600 dan ortiq va boshqa umumiy turdagi sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi 3800 ta kompaniya faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan ba'zi birlari dunyo sug'urta bozorida ham oldingi o'rinlardadir. Masalan, "Prudensial of Amerika" kompaniyasi mamlakat ichki bozorida birinchi va 1992-yil boshida mavjud aktivlari, to'plagan sug'urta mukofotlari bo'yicha uchinchi o'rinni egalladi. AQSh sug'urta bozori yuqori darajada diversifikatsiyalashgan bo'lib, unda hayot sug'urtasi, mulk sug'urtasi, javobgarlik sug'urtasi hamda qayta sug'urtalash yo'nalishlari keng rivojlangan. Bozordagi kuchli raqobat muhiti sug'urta xizmatlari sifatining oshishiga va innovatsion mahsulotlar joriy etilishiga turtki bermoqda.



Mazkur rasmda sug'urta kompaniyalarining asosiy tashkiliy shakllari ketma-ketlikda ko'rsatilgan. Unda davlat sug'urta kompaniyalari davlat nomidan sug'urtalovchi sifatida faoliyat yuritishi, xususiy aksiyadorlik sug'urta kompaniyalari esa jismoniy shaxslar kapitali asosida tashkil etilishi yoritilgan. Shuningdek, o'zaro sug'urtalash kompaniyalari a'zolarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tashkil etilishi, nodavlat nafaqa fondlari aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlashga xizmat qilishi ta'kidlangan. Bundan tashqari, ixtisoslashgan qayta sug'urtalash kompaniyalari sug'urta risklarini qayta taqsimlash orqali tizim barqarorligini ta'minlaydi. Umuman olganda, rasm sug'urta tizimining turli tashkiliy shakllari o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritib, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishini ifodalaydi. Ushbu tashkiliy shakllarning xilma-xilligi sug'urta bozorida raqobat muhitini kuchaytirib, xizmatlar sifatining oshishiga xizmat qiladi.

1-jadval

² Chizma internet ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) uchun ustav kapitalining minimal miqdorlari, mlrd so'mda³

T/r	Sug'urta faoliyatining turlari	2022 yil 1 iyuldan	2024 yil 1 iyuldan
1	Umumiy sug'urta yoki hayotni sug'urta qilish tarmog'ida ixtiyoriy sug'urta	15	20
2	Umumiy sug'urta yoki hayotni sug'urta qilish tarmog'ida majburiy sug'urta	25	35
3	Faqat qayta sug'urta	35	45

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27- noyabrdagi 413- sonli Qarori sug'urta faoliyatida muhim yangilik bo'ldi. Ilk bor sug'urtalovchilarning ustav kapitaliga eng kam miqdorlar belgilandi. Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida nizom, sug'urta faoliyati klassifikatori tasdiqlandi.

10 200 nafar professional ishtirokchi faoliyat ko'rsatadigan sug'urta bozorini Moliya vazirligi huzuridagi bor yo'g'i 6 nafar xodim ishlaydigan sug'urta nazorati inspeksiyasi "nazorat qilmoqda". Mazkur tashkilot o'z zimmasidagi vakolat hamda vazifalarini to'laqonli amalga oshirish imkoniyatiga ega emas. U aksariyat hollarda tegishli hisobotlarni umumlashtirish bilangina shug'ullanmoqda. Oqibatda mamlakat sug'urta bozori nazoratdan deyarli chetda qolib ketmoqda. Bu esa, faqat o'z manfaatlari yo'lida ishlaydigan ayrim sug'urta tashkilotlari va ularning rahbarlariga qo'l kelmoqda". Ma'lumki, jahon amaliyotida yirik tavakkallarni sug'urtalashda mamlakatdagi bir necha sug'urta tashkilotlarini guruhlariga, jamiyatlarga yoki uyushmalarga jamlash orqali, qayta sug'urtalash tashkilotlarini tuzish tajribasi XIX asrdayoq yo'lga qo'yilgan. Mamlakatimizda esa, shu kunga qadar bu muhim mexanizmdan foydalanilmayapti. Qonunosti hujjatlaridagi turli to'siq va cheklovlar esa, mazkur mablag'lardan samarali foydalanish, jumladan, ularni sug'urta kompaniyalarining ustav kapitaliga jalb etish imkonini bermaydi. Bir so'z bilan aytganda, qonun hujjatlaridagi eskirgan normalar, tafovutlar, chalkashliklar va boshqa kamchiliklar bu kompaniyalar uchun istiqbol eshiklarini yopib qo'ygan. Sug'urta sohasidagi og'riqli nuqtalardan yana biri kadrlar salohiyati bilan bog'liqdir. Bugungi kunda soha xodimlarining bor yo'g'i 32 foizi oliy va 30 foizi o'rta maxsus ma'lumotga ega. Boz ustiga, ularning aksariyati sug'urtaga aloqasi bo'lmagan kasb egalari. Bu kabi ko'plab muammolar sug'urta bozorining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashga, aholi hayotining sifati va darajasini oshirishga yo'naltirilgan moliyaviy xizmatlarni faol rivojlantirish respublikada sug'urta bozorining rolini kuchaytirishni va sug'urta vositalarini keng qo'llashni taqozo etmoqdaki, ushbu xususida Prezidentimiz Sh.Mirziyoev sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari bo'yicha o'tkazgan yig'ilishida quyidagi fikrlarni bildirdilar: "Sohaga nazoratchi emas, ilg'or va zamonaviy standartlarni joriy etadigan, barcha ishtirokchilar o'rtasida chinakam raqobat muhitini yaratib,

³ " Экономика и социум" №10(113)-1 2023[Elektron resurs] URL: www.iupr.ru Murojaat qilingan sana: 2025-yil 1-oktyabr

sug'urta bozorini rivojlantiradigan tuzilma kerak"⁴. Shu bois, Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi tugatilib, Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi tashkil etildi. Sug'urta sohasini o'rta va uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, 2022 yilgacha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'urta mukofoti hajmini 3 baravar, sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini esa 2 barobar oshirish vazifasi qo'yildi. Mazkur chora-tadbirlar sug'urta bozorining institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Yangi tashkil etilgan agentlik tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish va xalqaro tajribani joriy etish orqali sohada samaradorlik oshirilishi kutilmoqda.

III. O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirishda xalqaro tajribaning ahamiyati

Aholining sug'urta xizmatlariga bo'lgan ishonchini kuchaytirish hamda moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish bozor rivojida muhim omil hisoblanadi. Natijada sug'urta bozori iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga va ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashga munosib hissa qo'shadi.

2-jadval

2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini jadal rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari⁵

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	2020	2021	2022	2023	2024	O'sishi, barobar
1	Sug'urtaxizmatlarining YAIMdagi ulushi (foiz)	0.4	0.5	0.6	0.7	0.8	2
2	Aholi jon boshiga sug'urtamukofotining miqdori (min gso'm)	50.0	65.0	88.0	114.0	148.0	3
3	Jami sug'urta mukofotlarining hajmi (trln so'm)	1.6	2.1	2.9	3.8	5.2	3.3
4	Sug'urtatashkilotlarining jami ustav kapitali (trln so'm)	0.5	0.8	0.9	1.0	1.2	2.4
5	Sug'urtatashkilotlarining jami aktivlari (trln so'm)	2.5	3.0	3.6	4.3	5.2	2.1
6	Sug'urta tashkilotlarining jami investitsiyalari (trln so'm)	2.0	2.5	3.3	4.1	5.3	2.7
7	Sug'urta xizmatlari turlarining soni (birlik)	105	115	135	155	175	1.7

Birinchidan, bugungi kunda mamlakatimiz milliy sug'urta bozori nisbatan tez rivojlanayotgan bo'lsada, bugungi kun jahon talablariga to'liq javob bera olmaydi. Ikkinchidan,

⁴ " Экономика и социум" №10(113)-1 2023[Elektron resurs] URL: www.iupr.ru Murojaat qilingan sana: 2025-yil 1-oktyabr

⁵ o'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirishning iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish 2024

sug'urta xizmatidan foydalanayotgan va foydalanishi mumkin bo'lgan aholining aksariyat qismi, sug'urta haqida to'liq ma'lumotga ega emas. Holbuki, bu sug'urta turiga talabning ortishi sug'urtalanuvchi va sug'urtalanuvchiga moliyaviy holatini yaxshilashda o'zining salmoqli xissasini qo'shadi. Yuridik shaxslar sug'urta qildirishi uchun, birinchi navbatda, ularga ishonch kerak. Jismoniy shaxslarga esa to'g'ri ma'lumot. Ma'lumotlar to'g'ri va to'liq bo'lishi ularni sug'urtadan to'g'ri va maqsadli foydalanishga jalb qiladi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun sug'urta bozoriga malakali mutaxassislar talab etiladi. Sug'urta kompaniyalarida faoliyat yuritayotgan aksariyat hodimlar sug'urta ishining mutaxassisi emas. Bir bo'lim xodimi ikkinchi bo'lim xodimining faoliyati, amalga oshirayotgan ishlari haqida ma'lumotga ega emas. Agentlar faoliyatida ham xuddi shunday muammo mavjud. Natijada sug'urtalanmoqchi bo'lgan shaxsga sug'urta xizmatlari to'g'ri va to'liq yetkazilmaganligi natijasida aholi to'liq ma'lumotga ega bo'lmasdan sug'urtaga bo'lgan talabning pasayishi va faoliyatga nisbatan ishonmaslik holatlari yuzaga kelmoqda. Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida, quyidagi takliflarni berish mumkin: Birinchidan mamlakatimiz sug'urta bozorini rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetkazishning eng muhim va asosiy omillaridan biri bu, O'zbekistonda xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda o'zaro sug'urtani joriy etishdir va bunda davlatning tashabbuskorligidan foydalanish sug'urta sohasidagi bugungi kunning dolzarb masalasidir. Mamlakatda o'zaro sug'urtani joriy etish uchun avvalambor uning huquqiy ta'minotini yo'lga qo'yish, o'zaro sug'urtani rivojlantirish maqsadida ushbu sohaga taalluqli imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etish zarur deb hisoblaymiz. Shunday holatda o'zaro sug'urta, sug'urtaning alohida shakli sifatida tijorat sug'urtasi bilan parallel ravishda rivojlanadi va ko'p sonli potensial sug'urtalanuvchilarni sug'urtaga jalb etish barobarida fuqarolarning moddiy farovonligini oshishida, ularning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq tavakkalchiliklarini kafolatlashda, korxonalar va tashkilotlarning barqaror faoliyat ko'rsatishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, sug'urta faoliyatini rivojlanishi uchun sug'urta xizmatlarini keng ko'lamda reklama qilish samarali natija beradi. Eng ommabop bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar: telegram, instagram va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda sug'urta xizmatlari va uning afzalliklari haqida ma'lumot berib turish. Misol uchun sug'urta xizmatlari bo'yicha telegramda bir kanal ochib, bu haqida boshqa kanallarga ma'lumot tashlash orqali, aholini sug'urta kanaliga a'zo qilish va sug'urta faoliyatining yangiliklaridan muntazam ravishda xabardor qilib turish mumkin.

Xulosa

O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlantirishda xalqaro makroiqtisodiy tamoyillarni qo'llash iqtisodiy tizimning barqarorligini mustahkamlashda muhim yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. O'tkazilgan ilmiy tahlillar sug'urta bozorining rivojlanish darajasi mamlakatda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash, moliyaviy xatarlarni kamaytirish va investitsion faollikni oshirish bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Sug'urta tizimi orqali iqtisodiy subyektlarning moliyaviy yo'qotishlari qoplanishi, iqtisodiy sikllarning salbiy ta'siri yumshatilishi hamda moliyaviy resurslarning samarali qayta taqsimlanishi ta'minlanadi. Tahlillar natijasida xalqaro tajribada keng qo'llaniladigan kapital yetarliligi, risklarni boshqarish, shaffoflik va samarali tartibga solish mexanizmlarini milliy sug'urta bozoriga joriy etish zarurligi asoslandi. Sug'urta mukofotlari hajmining ortishi, ularning YAIMdagi ulushining kengayishi hamda sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning o'sib borishi sug'urta sektorining iqtisodiyotdagi rolini mustahkamlab bormoqda. Shu bilan birga, sug'urta kompaniyalari

tomonidan shakllantirilayotgan investitsion resurslar real sektorni moliyalashtirishda muhim manba sifatida ishtirok etmoqda. Natijada, xalqaro makroiqtisodiy tamoyillarni izchil qo'llash sug'urta bozorining institutsional rivojlanishini ta'minlash, moliyaviy tizim barqarorligini oshirish hamda milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror o'sishiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida baholanadi..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Agentlik" ning 2-avgustdagi 2019 yil PQ-4412-sonli qarori
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson mafaatlari yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy – uslubiy qo'llanma. Toshkent-2017
4. Shennayev X. "O'zbekiston sug'urta bozori". Oliy o'quv yurtlarining "Sug'urta ishi" mutaxassisligi bo'yicha magistratura talabalari uchun o'quv qo'llanma. TMI. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2022.
5. Ochilov I.K. Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil metodologiyasini takomillashtirish: Monografiya. T.: Iqtisod-Moliya, 2021
6. Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda sug'urtaning roli: tendensiyalar, muammolar va yechimlar: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. / Mualliflar jamoasi. –Toshkent. TDIU, 2023.- 349 b
7. <https://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi statistika agentligi
8. <https://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
9. <https://www.statista.com> – Dunyodagi sohalar va mamlakatlar statistikasini o'rganuvchi portal
10. <https://president.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti